O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# EKSPORT FAOLIYATINI YANADA QO‘LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

So‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga doimiy e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag‘batlantirish agentligi tashkil etilib, eksport hajmini oshirish uchun eksport qiluvchi korxonalarga moliyaviy ko‘mak berish mexanizmlari yaratildi.

Jahon bozorlarida raqobat keskinlashib borayotgan sharoit mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali yangi bozorlarga kirib borish va an’anaviy bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi PQ-4337-son “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga muvofiq joriy etilgan mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarini 50 foizigacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish mexanizmi mahsulotlarni avtomobil va havo transportida eksportga tashishga ham tatbiq etilsin.

Eksport qilishda avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish xarajatlarining bir qismi kompensatsiya qilinadigan mahsulotlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga (S.U. Umurzakov) (keyingi o‘rinlarda — Hukumat komissiyasi) eksport qilishda transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan subsidiyalar taqdim etiladigan mahsulotlar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, subsidiyalar taqdim etish shartlari va miqdorlarini belgilash hamda tartibini tasdiqlash, shuningdek, mahsulot turi, hajmi va eksport yo‘nalishiga qarab subsidiyaning qat’iy miqdorlarini belgilash vakolati berilsin.

Hukumat komissiyasi bir hafta muddatda mahalliy eksport qiluvchi korxonalar (ularning vakolatli vakillari)ga mahsulotlarni eksport qilishda, shu jumladan 2020-yil 1-apreldan buyon amalga oshirilgan eksport bo‘yicha avtomobil, havo va temir yo‘l transportida tashish xarajatlarini qisman kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish tartibini tasdiqlasin.

*(2-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi PF-6091-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2020-y., 06/20/6091/1399-son)*

3. O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan eksport operatsiyalari bo‘yicha olib o‘tilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan joriy qilingan barcha turdagi majburiy to‘lovlar va ijro hujjatlari bo‘yicha qarzdorligi mavjudligini tekshirish amaliyoti 2021-yil 1-yanvarga qadar bekor qilinsin.

4. Belgilansinki, eksport qiluvchilar garov sifatida sug‘urta xizmatlaridan foydalanganda sug‘urta mukofotini qoplashga O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan kompensatsiyalar taqdim etiladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Eksportni rag‘batlantirish agentligining xarajatlari uchun asoslangan hisob-kitoblar bo‘yicha 2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan zarur mablag‘lar ajratsin va 2021-yildan har yili zarur budjet mablag‘larini nazarda tutsin.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritilsin.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bir oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2020-yil 7-may,
PQ-4707-son

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qaroriga
1-ILOVA

## Eksport qilishda avtomobil, temir yoʻl va havo transportida tashish xarajatlarining bir qismi kompensatsiya qilinadigan mahsulotlar

RO‘YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Mahsulot nomi | Mahsulotning TIF TN kodi |
|---|---|---|
| 1. | Tuxum, parranda goʻshti va mahsulotlari* | 0407210000, 0207 |
| 2. | Pomidorlar | 0702000001 — 0702000009 |
| 3. | Sarimsoq | 0703200000 |
| 4. | Gulkaram | 0704100000 |
| 5. | Salatlar (latuk, aysberg, radicho, oaklif, lollo-rossa va boshqalar) | 0705 |
| 6. | Bodringlar | 0707000501 — 0707000509 |
| 7. | Koʻkatlar | 0709400000, 0709700000, 0709991000, 0709999000 |
| 8. | Shirin qalampir hoʻl yoki muzlatilgan | 0709601000, 0710805100 |
| 9. | Achchiq qalampir | 0709609900 |
| 10. | Muzlatilgan sabzavotlar | 0710809500 |
| 11. | Kovul | 0711907000 |
| 12. | Quritilgan sabzavotlar | 0712909000 |
| 13. | Yongʻoq | 0802310000, 0802320000 |
| 14. | Bodom | 0802111000, 0802119000, 0802121000, 0802129000 |
| 15. | Limon | 0805501000 |
| 16. | Uzum | 0806101000, 0806109000 |
| 17. | Mayiz | 0806203000, 0806209000 |
| 18. | Tarvuz | 0807110000 |
| 19. | Qovun | 0807190000 |
| 20. | Olma | 0808108001 — 0808108004 |
| 21. | Nok | 0808309000 |
| 22. | Oʻrik | 0809100000 |
| 23. | Gilos | 0809290000 |
| 24. | Nektarin | 0809301000 |
| 25. | Shaftoli | 0809309000 |
| 26. | Olxoʻri | 0809400500 |

| | | |
|---|---|---|
| 27. | Olcha | 0809210000, 0811907500 |
| 28. | Xurmo | 0810700000 |
| 29. | Anor | 0810907500 |
| 30. | Muzlatilgan yoki konservalangan mevalar | 0811, 0811907500, 0811908000, 0811909500, 0812902500 |
| 31. | Quritilgan mevalar | 0813100000, 0813200000, 0813300000, 0813401000, 0813403000, 0813409500, 0813501500, 0813501900, 0813509100, 0813509900 |
| 32. | Quritilgan, maydalangan va yanchilgan qalampir | 0904110000, 0904120000, 0904211000, 0904219000, 0904220000 |
| 33. | Yeryong‘oq | 1202, 1202410000, 1202420000 |
| 34. | Tabiiy uzum vinolari | 2204101100, 2204219700, 2204219800, 2204299501, 2204299508, 2204299601, 2204299701, 2204299708, 2204299709, 2204299801, 2204299809, 2204309800 |
| 35. | Konyak distillyati | 2208208900 |
| 36. | Tarkibida antibiotiklar bo‘lgan penitsillinlar, dori vositalari | 3004100001, 3004100006, 3004200001, 3004200002 |
| 37. | Gulqog‘ozlar va shunga o‘xshash devor qoplamalari | 4814200000 |
| 38. | Gazlama | 5208-5212 |
| 39. | To‘qima gilamlar | 5702 42 900 0, 5701101000, 5701 90 100 0, 5702 41 900 0, 5703 10 000 0 |
| 40. | Linoleum | 5904100000 |
| 41. | Trikotaj mato** | 60 |
| 42. | Tikuv-trikotaj mahsulotlari | 61 — 63 |
| 43. | Suv o‘tkazmaydigan poyabzal | 6401921000, 6401929000, 6401990000 |
| 44. | Poyabzal | 6403200000, 6403400000, 6403911600, 6403999100, 6403999600, 6404199000, 6404209000, 6405100000, 6405209100, 6405209900, 6405901000 |
| 45. | Shlak paxta, mineral paxta va boshqalar | 6806100008, 6806209000, 6806900000 |
| 46. | Tosh yotqizish uchun plitalar | 6907219001, 6907229003, 6907229009, 6907239003 |
| 47. | Keramikadan yasalgan pardozlash buyumlari | 6907409003, 6907409009 |
| 48. | Oshxona idishlari va boshqalar | 6912001000, 6912002100, 6912002300, 6912002500, 6912002900, 6912005000, 6912008100, 6912008900, 6912009000 |
| 49. | Shisha tola | 7019199009, 7019310000, 7019390009, 7019510000, 7019590000, 7019900009 |
| 50. | Shisha idishlar | 7010901000, 7010904100, 7010904300, 7010904500, 7010905300, 7010907100, 7010907900 |
| 51. | Qalpoqlar yoki ventilatsiyali shkaflar | 8414600000 |
| 52. | Kir yuvish mashinalari | 8450120000 |
| 53. | Akkumulyatorlar | 8507102003 |
| 54. | Transformatorlar | 8504210000, 8504221000, 8504229000, 8504230000, 8504312900, 8504318009, 8504330000, 8504340000, 8504403009, 8504405500, 8504408200, 8504408800, 8504409000, 8504509500, 8504901800, 8504909900 |
| 55. | Chang yutgichlar | 8508190001 |

| | | |
|---|---|---|
| 56. | Taqsimlagichlar, o‘t oldirish g‘altaklari | 8511400008 |
| 57. | Elektr uskunalar | 8511500009 |
| 58. | Elektr yoritish va signalizatsiya uskunalari | 8512200001, 8512200009 |
| 59. | Pechlar va kameralar | 8514900000 |
| 60. | Elektr suv isitgichlar, mikroto‘lqinli pechlar, pechlar, elektr plitalar va h.k. | 8516108000, 8516500000, 8516601010, 8516601090, 8516607000, 8516609000 |
| 61. | Ovozni qabul qilish va uzatish uchun apparatura, televizion aloqani qabul qilish uchun apparatura | 8517620009, 8528722001 |
| 62. | Kommutatsiya uchun elektr apparatura | 8535900000 |
| 63. | Pultlar, panellar, konsollar va boshqalar | 8537109900, 8537209100 |
| 64. | Diodlar | 8541100009 |
| 65. | O‘ralgan va izolatsiyalangan simlar, o‘t oldirish svechalari uchun simlar to‘plami, elektr o‘tkazgichlar | 8544111000, 8544300008, 8544499101, 8544499109, 8544499309, 8544499500, 8544609009 |
| 66. | O‘tirish uchun mebel | 9401610000, 9401690000, 9401903000 |
| 67. | O‘yinchoqlar | 9503001000, 9503003500, 9503007000, 9503009500 |
| 68. | Gigiyena vositalari | 9619008101 |

* Import qiluvchi mamlakatdan qat’iy nazar.

** Transportda tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish 2022-yil 1-yanvargacha amal qiladi.

*(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-iyundagi PQ-4759-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2020-y., 07/20/4759/0970-son)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qaroriga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan**

O‘ZGARTIRISHLAR VA QO‘SHIMCHA

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-son qarori 4-bandining “a” kichik bandidan ““O‘zstandart” agentligining asoslantirilgan hisob-kitoblariga muvofiq” so‘zlari chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4337-son qarorida:

a) 3-bandda:

birinchi xatboshi “ilovadagi ro‘yxatga muvofiq mahsulotlarni eksport qilishda temir yo‘l transportida” so‘zlari “avtomobil, temir yo‘l va havo transportida” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi “tatbiq etilmaydi,” so‘zlaridan keyin “Afg‘oniston Islom Respublikasiga eksport qilinadigan mahsulotlar va” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

b) ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4406-son qarori 7-bandining “a” kichik bandidan “O‘zstandart” agentligining asoslantirilgan hisob-kitoblariga muvofiq” so‘zlari chiqarib tashlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4549-son qaroriga ilovaning 4-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-son qaroriga 2-ilovaning 1-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.05.2020-y., 07/20/4707/0545-son, 26.06.2020-y., 07/20/4759/0970-son, 22.10.2020-y., 06/20/6091/1399-son, 31.10.2020-y., 06/20/6098/1432-son)*

ПОСТАНОВЛЕНИЕ
ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# О МЕРАХ ПО ДАЛЬНЕЙШЕЙ ПОДДЕРЖКЕ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В последние годы уделяется постоянное внимание государственной поддержке и стимулированию экспортной деятельности субъектов предпринимательства.

В частности, образовано Агентство продвижения экспорта при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан, созданы механизмы финансовой поддержки предприятий-экспортеров для увеличения объемов экспорта.

Условия возрастающей конкуренции на мировых рынках вызывают необходимость дальнейшего расширения государственной поддержки экспортеров для продвижения на новые рынки и укрепления собственных позиций на традиционных рынках путем увеличения объема экспорта продукции.

В целях дальнейшего совершенствования системы поддержки экспортной деятельности, а также обеспечения исполнения задач, определенных в Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах в «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики»:

1. Распространить механизм предоставления субсидий на компенсацию до 50 процентов расходов по транспортировке при экспорте продукции, внедренный в соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2019 года № ПП-4337 «О мерах по расширению механизмов финансирования и страховой защиты экспортной деятельности», также на транспортировку продукции на экспорт автомобильным и воздушным транспортом.

Утвердить Перечень продукции, при экспорте которой осуществляется компенсация части затрат на ее транспортировку автомобильным, железнодорожным и воздушным транспортом, согласно приложению № 1.

*См. предыдущую редакцию.*

2. Уполномочить Правительственную комиссию по вопросам развития экспорта и инвестиций (С.У. Умурзаков) (далее — Правительственная комиссия) вносить изменения и дополнения в Перечень продукции, при экспорте которой предоставляются субсидии из Государственного бюджета Республики Узбекистан на компенсацию части транспортных расходов, определять условия и размеры, а также утверждать порядок предоставления субсидий, устанавливать фиксированные размеры субсидий в зависимости от вида, объема и направления экспорта продукции.

Правительственной комиссии в недельный срок утвердить порядок предоставления субсидий отечественным предприятиям-экспортерам (их уполномоченным представителям) на компенсацию части затрат по транспортировке автомобильным, воздушным и железнодорожным транспортом при экспорте продукции, в том числе по экспортным поставкам, осуществленным с 1 апреля 2020 года.

*(пункт 2 в редакции Указа Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2020 года № УП-6091 — Национальная база данных законодательства, 22.10.2020 г., № 06/20/6091/1399)*

3. Отменить до 1 января 2021 года практику проверки наличия задолженности по всем видам обязательных платежей и исполнительных документов, введенных в отношении физических и юридических лиц при таможенном оформлении товаров, перемещаемых через таможенную границу Республики Узбекистан по экспортным операциям.

4. Установить, что Агентством продвижения экспорта при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан предоставляются компенсации на возмещение страховой премии при пользовании экспортерами в качестве залога страховыми услугами.

5. Министерству финансов Республики Узбекистан выделить по обоснованным расчетам средства, необходимые на расходы Агентства продвижения экспорта из

Государственного бюджета Республики Узбекистан на 2020 год, начиная с 2021 года — ежегодно предусматривать необходимые бюджетные средства.

6. Внести изменения и дополнение в некоторые акты Президента Республики Узбекистан согласно приложению № 2.

7. Министерству инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами в месячный срок внести в Кабинет Министров предложение об изменениях и дополнениях в законодательство, вытекающих из настоящего постановления.

8. Контроль за исполнением настоящего постановления возложить на Премьер-министра Республики Узбекистан А.Н. Арипова.

**Президент Республики Узбекистан Ш. МИРЗИЁЕВ**

г. Ташкент,
7 мая 2020 г.,
№ ПП-4707

ПРИЛОЖЕНИЕ № 1
к постановлению Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2020 года № ПП-4707

## ПЕРЕЧЕНЬ
**продукции, при экспорте которой осуществляется компенсация части затрат на ее транспортировку автомобильным, железнодорожным и воздушным транспортом**

*См. предыдущую редакцию.*

| № | Наименование продукции | Код ТН ВЭД продукции |
|---|---|---|
| 1. | Яйца, мясо птицы и птицеводческая продукция* | 0407210000, 0207 |
| 2. | Помидоры | 0702000001 — 0702000009 |
| 3. | Чеснок | 0703200000 |
| 4. | Цветная капуста | 0704100000 |
| 5. | Салаты (латук, айсберг, радичо, оаклиф, лолло-росса и другие) | 0705 |
| 6. | Огурцы | 0707000501 — 0707000509 |
| 7. | Зелень | 0709400000, 0709700000, 0709991000, 0709999000 |
| 8. | Перец сладкий свежий или замороженный | 0709601000, 0710805100 |
| 9. | Перец стручковый (горький) | 0709609900 |
| 10. | Замороженные овощи | 0710809500 |
| 11. | Каперсы | 0711907000 |
| 12. | Сушеные овощи | 0712909000 |
| 13. | Грецкий орех | 0802310000, 0802320000 |
| 14. | Миндаль | 0802111000, 0802119000, 0802121000, 0802129000 |
| 15. | Лимон | 0805501000 |
| 16. | Виноград | 0806101000, 0806109000 |
| 17. | Виноград сушеный (изюм) | 0806203000, 0806209000 |
| 18. | Арбузы | 0807110000 |
| 19. | Дыни | 0807190000 |
| 20. | Яблоки | 0808108001-0808108004 |
| 21. | Груши | 0808309000 |
| 22. | Абрикос | 0809100000 |
| 23. | Черешня | 0809290000 |

| | | |
|---|---|---|
| 24. | Нектарин | 0809301000 |
| 25. | Персики | 0809309000 |
| 26. | Сливы | 0809400500 |
| 27. | Вишня | 0809210000, 0811907500 |
| 28. | Хурма | 0810700000 |
| 29. | Гранаты | 0810907500 |
| 30. | Замороженные или консервированные фрукты | 0811, 0811907500, 0811908000, 0811909500, 0812902500 |
| 31. | Сушеные фрукты | 0813100000, 0813200000, 0813300000, 0813401000, 0813403000, 0813409500, 0813501500, 0813501900, 0813509100, 0813509900 |
| 32. | Сушеный, дробленный и молотый перец | 0904110000, 0904120000, 0904211000, 0904219000, 0904220000 |
| 33. | Арахис | 1202, 1202410000, 1202420000 |
| 34. | Вина виноградные натуральные | 2204101100, 2204219700, 2204219800, 2204299501, 2204299508, 2204299601, 2204299701, 2204299708, 2204299709, 2204299801, 2204299809, 2204309800 |
| 35. | Дистиллят коньяка | 2208208900 |
| 36. | Средства лекарственные, пенициллины, содержащие антибиотики | 3004100001, 3004100006, 3004200001, 3004200002 |
| 37. | Обои и аналогичные настенные покрытия | 4814200000 |
| 38. | Ткани | 5208 — 5212 |
| 39. | Тканые ковры | 5702 42 900 0, 5701101000, 5701 90 100 0, 5702 41 900 0, 5703 10 000 0 |
| 40. | Линолеум | 5904100000 |
| 41. | Трикотажное полотно** | 60 |
| 42. | Швейно-трикотажные изделия | 61 — 63 |
| 43. | Водонепроницаемая обувь | 6401921000, 6401929000, 6401990000 |
| 44. | Обувь | 6403200000, 6403400000, 6403911600, 6403999100, 6403999600, 6404199000, 6404209000, 6405100000, 6405209100, 6405209900, 6405901000 |
| 45. | Шлаковата, минеральная вата и др. | 6806100008, 6806209000, 6806900000 |
| 46. | Плиты для мощения | 6907219001, 6907229003, 6907229009, 6907239003 |
| 47. | Отделочные керамические изделия | 6907409003, 6907409009 |
| 48. | Посуда столовая, кухонная и др. | 6912001000, 6912002100, 6912002300, 6912002500, 6912002900, 6912005000, 6912008100, 6912008900, 6912009000 |
| 49. | Стекловолокно | 7019199009, 7019310000, 7019390009, 7019510000, 7019590000, 7019900009 |
| 50. | Стеклянные емкости | 7010901000, 7010904100, 7010904300, 7010904500, 7010905300, 7010907100, 7010907900 |
| 51. | Колпаки или шкафы вытяжные | 8414600000 |
| 52. | Стиральные машины | 8450120000 |
| 53. | Аккумуляторы | 8507102003 |
| 54. | Трансформаторы | 8504210000, 8504221000, 8504229000, 8504230000, 8504312900, 8504318009, 8504330000, 8504340000, |

| | | |
|---|---|---|
| | | 8504403009, 8504405500, 8504408200, 8504408800, 8504409000, 8504509500, 8504901800, 8504909900 |
| 55. | Пылесосы | 8508190001 |
| 56. | Распределители, катушки зажигания | 8511400008 |
| 57. | Электрическое оборудование | 8511500009 |
| 58. | Электроосветительное и сигнализационное оборудование | 8512200001, 8512200009 |
| 59. | Печи и камеры | 8514900000 |
| 60. | Электрические водонагреватели, печи микроволновые, печи, электроплиты и т.п. | 8516108000, 8516500000, 8516601010, 8516601090, 8516607000, 8516609000 |
| 61. | Аппаратура для приема и передачи голоса, аппаратура приемная для телевизионной связи | 8517620009, 8528722001 |
| 62. | Электрическая аппаратура для коммутации | 8535900000 |
| 63. | Пульты, панели, консоли и др. | 8537109900, 8537209100 |
| 64. | Диоды | 8541100009 |
| 65. | Провода обмоточные и изолированные, комплекты проводов для свечей зажигания, проводники электрические | 8544111000, 8544300008, 8544499101, 8544499109, 8544499309, 8544499500, 8544609009 |
| 66. | Мебель для сидения | 9401610000, 9401690000, 9401903000 |
| 67. | Игрушки | 9503001000, 9503003500, 9503007000, 9503009500 |
| 68. | Гигиенические средства | 9619008101 |

* Вне зависимости от страны-импортера.

** Компенсирование части затрат на перевозку транспортом осуществляется до 1 января 2022 года.

*(приложение № 1 в редакции постановления Президента Республики Узбекистан от 26 июня 2020 года № ПП-4759 — Национальная база данных законодательства, 26.06.2020 г., № 07/20/4759/0970)*

ПРИЛОЖЕНИЕ № 2
к постановлению Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2020 года № ПП-4707

## ИЗМЕНЕНИЯ И ДОПОЛНЕНИЕ,
## вносимые в некоторые акты Президента Республики Узбекистан

1. Из подпункта «а» пункта 4 постановления Президента Республики Узбекистан от 23 мая 2019 года № ПП-4335 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов» слова «по обоснованным расчетам Агентства «Узстандарт» исключить.

2. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2019 года № ПП-4337 «О мерах по расширению механизмов финансирования и страховой защиты экспортной деятельности»:

а) в пункте 3:

в абзаце первом слова «железнодорожным транспортом при экспорте продукции по перечню согласно приложению» заменить словами «автомобильным, железнодорожным и воздушным транспортом»;

абзац второй после слов «за исключением» дополнить словами «экспорта продукции в Исламскую Республику Афганистан и иных»;

абзац четвертый исключить;

б) приложение признать утратившим силу.

3. Из подпункта «а» пункта 7 постановления Президента Республики Узбекистан от 29 июля 2019 года № ПП-4406 «О дополнительных мерах по глубокой переработке сельскохозяйственной продукции и дальнейшему развитию пищевой промышленности» слова «по обоснованным расчетам Агентства «Узстандарт» исключить.

4. Пункт 4 приложения к постановлению Президента Республики Узбекистан от 11 декабря 2019 года № ПП-4549 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию плодоовощеводства и виноградарства, созданию в отрасли цепочки добавленной стоимости» признать утратившим силу.

5. Пункт 1 приложения № 2 к постановлению Президента Республики Узбекистан от 29 января 2020 года № ПП-4576 «О дополнительных мерах государственной поддержки животноводческой отрасли» признать утратившим силу.

*(Национальная база данных законодательства, 07.05.2020 г., № 07/20/4707/0545, 26.06.2020 г., № 07/20/4759/0970, 22.10.2020 г., № 06/20/6091/1399, 31.10.2020 г., № 06/20/6098/1432)*